



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
VAZIRI**

J.SH.EGAMBERDIYEV

B.M.SMANOV

Kelishilgan. O'rnatilgan tartibda ishlash uchun.

№NH96975893

SH.X.SHERMATOV

19 Yanvar 2024

Вазир



**Raqamli texnologiyalar
vaziri
Sh.X. Shermatovga**

Hurmatli Sherzod Xotamovich,

“Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” davlat unitar korxonasi (“RRTM” DUK)ning 2024-yil 15-yanvardagi 07/34-358-son xati yuzasidan quyidagilarni ma’lum qilamiz:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrda PF–269-son va “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son Farmonlariga asosan Vazirlik tizimidagi “RRTM” DUKning Ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, “RRTM” DUKning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasi ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2006-yil 16-oktabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari to‘g‘risidagi Nizomning 11-bandiga asosan Davlat korxonasi ustaviga o‘zgartirishlar muassisning qaroriga ko‘ra kiritilishi va belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “RRTM” DUKning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasini tasdiqlash taklif etilmoqda.

Ko‘rib chiqish va kelishish uchun kiritilmoqda.

Vazir maslahatchisi

J. Egamberdiyev

